

## BUXORODA YANGI EKIN NAVLARINING TARQALISHI TARIXIDAN (XIX ASR OXIRI – XX ASR BIRINCHI CHORAGI)

**Hayitov J.Sh.**

BuxDU Jahon tarixi kafedrası mudiri, t.f.f.d. (PhD), dotsent

O‘simliklar tabiat in‘omi va mo‘jizasi bo‘lib, ularning hayotchanligi ob-havo, landshaft va tuproq tarkibi kabi ko‘pdan-ko‘p omillar bilan bog‘liq. Inson o‘simliklarni ikki guruhga, ya‘ni foydali va zararli guruhlarga bo‘lib, doim o‘ziga foyda beradigan turlarini izlaydi. Ularni ko‘chirib bir hududdan ikkinchisiga o‘tkazadi, yangi hududlarda iqlimlashtirish orqali dunyo bo‘ylab tarqatadi.

Ma‘lumki manzarali daraxtlar davlat va hukumat binolari oldidagi bog‘ va maydonlarga, ariq va kanallar qirg‘oqlariga, istirohat dam olish bog‘lari va parklarga, prospekt va ko‘chalarga o‘tqazilib, ular xushmanzara ko‘rinish hosil qilishgan. Shuningdek, hukmdorlar barpo etgan me‘moriy obidalar oldidagi yer maydonlari ham anvoiy gullar bilan birga o‘tqazilgan manzarali daraxtlar orqali o‘zgacha tabiiy chiroy ochgan. Ob-havoni mo‘tadillashtirish, yozning issiq kunida soya-salqinlikni ta‘minlash, atrof-muhitning bahordek yam-yashillikka erishish maqsadlari ham ko‘zlangan.

Biroq, XIX asr oxiri - XX asr boshida mahalliy aholining turmush tarziga Rossiya va boshqa mamlakatlardan olib kelingan manzarali daraxtlar asta - sekinlik bilan kirib bordi. Toshkent, Farg‘ona va Samarqad viloyatlarida, qolaversa, Buxoro amirligi va Xiva xonligi shaharlariga, (eng avvalo rus posyolka va shaharlariga - J.H.) manzarali daraxtlar tarqaldi.

Buxoroning amiri Amir Abdulahad Yangi Buxoro (hozirgi Kogon shahri - J.H.) shahrida Rossiya hukmdori sharafiga 1895 - 1904 yillarda qurdirgan Abdulahad xonsaroyi atrofidagi 4 gektarlik yer maydonida mevali bog‘lar va anvoyi gulzorlar barpo etish bilan birga, xorijdan keltirilgan Braziliya katalupasi, rus akatsiyasi, Adama daraxti kabilarni o‘stirishga muvaffaq bo‘lganligini qayd etish mumkin. Chambarakka o‘ralib o‘sadigan, tabiiy yashil devor hosil qiladigan rus boyarishnik o‘simligi saroy atrofida o‘ziga xos manzara hosil qilgan.[1.171]

Sharq va G‘arb me‘morchilik san‘atining XIX - XX asrlar uchun nafis va noyob namunasi bo‘lgan Buxoro amirlarining yozgi qarorgohi Sitorai Mohi - Xossa huzuridagi bog‘da yetti iqlimdan keltirilgan mevali va manzarali daraxtlar anvoyi gullar o‘tkazilgan. Ularni xorijdan keltirilgan bog‘bonlar parvarish qilgan. Saroy yaqinida bog‘bonlar uchun alohida hovli, gulchilar uchun maxsus qo‘rg‘on barpo qilinib, unga “Ko‘lbai Gulkoron nomi berilgan.[3.32.]

Buxoro amiri Abdulahadxon (hukmronligi: 1885-1910 y.y.) Qora dengizdan ikki chaqirim uzoqlikdagi baland bir tepalikda uch qavatli bino barpo etib, u Yalta saroyi (Qrim yarim orolida - J.H.) deb nomlangan. Ushbu hashamatli saroy oldida ikki kavatli yordamchi binolar, maschit qurilib, hovlida fontanlar o‘rnatilgan. Yalta saroyi yer maydoni Amir Abdulaxadxon tomonidan sotib olingan bo‘lib, Turkiston florasiga va faunasiga oid hayvonlar va o‘simliklar olib kelingan. Shuningdek, yer maydonining asosiy qismini turli mamlakatlardan olib kelingan mevali, manzarali daraxtlar va gullar egallagan.[7.] Qodirqul Abdul Nabining yozishicha: “Yalta

shahridan chetda Sharq uslubida bunyod qilingan Dilkusho” nomli bog‘cha barpo qilingan. Ushbu bog‘chada ham o‘nlab mamlakatlardan keltirilgan manzarali daraxtlar parvarishlangan.[7.]

Shuningdek, mintaqada yetishtirilgan shirin-shakar qovun navlari haqida ma’lumot berilar ekan, uning “Handalak” (tezpishar), “Buxoro”, “Namangan”, “Xon”, “Chorjo’y”, “Xorazm” kabi tur va navlari sanab o‘tilib, har bir qovun vazni 10-15 funtgacha (1 funt – 409 gramm – J.H.) og‘irlikda bo‘lishi, bozorda 20 koptgacha baholanishi qayd etiladi.

Qovun bozorga arobalarda (o‘rtacha 70 donagacha - J.H.) olib kelinib, 1 aroba qovun 2-3 rublgacha sotilishi, 1 desyatina yerdan 280 rubldan 320 rublgacha daromad olinishi haqida ma’lumot beriladi.[6.121-123] Mojar sayyohi va olimi Herman Vamberi: “Buxoro va Xorazmda yetishtiriladigan 10 ta yozgi va 5 ta qishki qovun navlari haqida ma’lumot berib, Qovunning yozgi: 1. Qamtshe, aylana shaklda, yupqa po‘st. 2. Gyorbel yashil rang, oq mag‘iz. 3. Boboshayxi, kichik aylana, oqmag‘iz. 4. Ko‘kcha. 5. Sherin patshek, aylana shaklda. 6. Shakarpalak. 7. Chitayi. 8. Ko‘knabot. 9. Oq nabot. 10. Bekota kabi navlarini, qishki qovunning 1. Qora gulobi. 2. Qizil gulobi. 3. Beshik. 4. Poyandeki. 5. Saksaul qovun (asosan Rossiyaga chiqariladi – J.H.) navlarini nomma - nom keltirib bozorda 1 aroba qovunga 1 aroba shakar olish mumkin”,- deb yozgandi.[2.68.]

Mintaqada azal-azaldan uzumning husayni (bu navni kelin barmoq, echki shoxi, deb atash ham xalq orasida keng tarqalgan - J.H.), toifiy (Arabistonning Toif shahrida ilk bor yetishtirilganligi uchun shunday nom bilan atalgani haqida fikrlar bor - J.H.) buvaki, charos (qizil, oq, sariq navlari bo‘lgan - J.H.) kishmish (oq va sariq navlari - J.H.) sultoni, toifiyning Xojaahror va Qarshi navlari, doroyi, choangur, shivirg‘oniy (donaksiz - J.H.) kabi navli uzumlar yetishtirib kelingan. Uzumchilikda mashhur bo‘lgan Samarqand, Urganch, Sharqiy Buxoro, Qarshi, Toshkent mirishkorlari yuqori natijalarga erishishgan. Manbalardan birida: “Uzumning vatani G‘arbiy Kavkaz, Qora dengiz bo‘ylari emas, balki O‘rta Osiyo bo‘lgan, xitoyliklar ayniqsa, II asrdan boshlab bu o‘lkadan uzumning eng a‘lo navlarini xarid qilib ketardilar. Yovvoyi uzum toklari Sharqiy Buxoroning (hozirgi Surxondaryo va Tojikiston Respublikasi - J.H.) Hisor tog‘li hududlarida o‘stib, ular novdasi 50 - 100 metrgacha bo‘lganligi, bunday yovvoyi uzum navlarini Toshkent uyezdining Chimyon tog‘larida ham uchratish mumkinligi qayd etiladi.[5.12] XIX asrning oxirgi choragida mintaqada uzumchilik sohasida Samarqand yetakchilik qilib, manabalarda: “Samarqandda o‘nlab uzum navlaridan olingan mo‘l-ko‘l hosil 4 oy davomida 32 ta bozorda sotiladi. Kishmishning barcha navlari mavjud bo‘lib, bu navdan yilda o‘rtacha 5214 botmon yohud 420.000 pud uzum Samarqand bozorlariga olib chiqiladi. Uzumning sifati va narx-navosi yildan-yilga oshib bormoqda. Bundan tashqari Xo‘jand, O‘ratepa, Namangan, Farg‘onaning chegarasida, Buxoro amirligining Qarshi, Shahrisabz va Urgut bekliliklarida katta uzum bozorlari bor. Buxoro amirligiga qarashli Qarshi, Shahrisabz, Urgut bekliliklarida yetishtirilgan uzum hosili Troisk yarmarkasiga, undan Sibir hududida joylashgan Chelyabinsk, Ishim, Tobolsk yarmarkalariga uzatildirdi. Qarshida yetishtirilgan uzum avval Varshava (Polsha) ga eksport qilinib, Fransiya savdo kompaniyalari Turkiston kishmishini u yerdan sotib olib, undan oliy sifatli konyak tayyorlashgan. Fransiyadan xushta‘m konyak sotib oladigan Rossiya ushbu ichimlik Turkiston uzumidan tayyorlanganligini tasavvur ham qilmagan. Donli ekinlar yetishtirish Buxoro amirligining Sharqiy Buxoro (hozirgi Surxondaryo viloyati va Tojikiston Respublikasi - J.H.) hududidagi Darvoz (1,5 mln.pud); Ko‘lob (4 mln pud); Boljuvon (5 mln.pud); Qorategin ( 4mln pud) bekliliklarida har yili ja‘mi o‘rtacha 15 mln pud bug‘doy yetishtirilib, shundan 1,5 mln pudi bozorda sotilardi. Sharqiy Buxoro bug‘doyi Hisor orqali Qarshi va Buxoro bozorlariga, Saroydagi pristandan qayiqlarda Termiz va Karkiga sotish uchun olib ketilgan. Bug‘doy narxi goh ko‘tarilib, goh pasayib turgan. XX asr boshlarida, kuz faslida

Ko'lob va Boljuvonda 1 botmon (10 pud - J.H.) bug'doy narxi-35 tangadan 45 tangagacha, 1 botmon arpa narxi 25 tangadan 40 tangagacha (rus pulida 3 rub. 75 kop.dan 6 rublgacha - J.H.) baholangan. 1905 yildan boshlab Saroy pristani (Fayziobod Posti yaqinida - J.H.) orqali qayiqalarda katta miqdorda bug'doy Termizga jo'natilib, 1 pud bug'doy 20 kop. to'lash sharti bilan tegishli manzilga yetkazilgan.[4.106.] Sharqiy Buxoroda bug'doyini un qiladigan tegirmonlar Ko'lob, Sarichashma, Saroyda bo'lib, bug'doy zahiralari yerda qazilgan maxsus yamalarda saqlanardi, mavjud zahira bir yildan keyin bozorga chiqarilgan, "agar shunday yo'l tutilmasa, uzoq saqlangan bug'doydan loy va tuproq hidi kelardi" - deb yozadi, D.N.Logafet.[4.107] Turkistonda mahalliy va ko'chirilgan dehqonlar tomonidan yetishtirilgan donli ekinlarning mahsulotlari asosan mintaqa aholisi ehtiyojlarini qoplashga ketardi. Masalan Sharqiy Buxoroda yetishtirilgan 15 mln pud bug'doyning atigi 1,5 mln pudi ichki va tashqi bozorga chiqarilgan. Bir qism bug'doy amirlik xazinasiga (800 tuya - J.H.) soliq sifatida yuborilsa, bir qismini bek va amaldorlar to'plab, mahalliy bozorda sotib, o'z daromadlarini ko'paytirgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Бобожонов Ш.У. Амир Абдулахадхон қароргоҳи. Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача) Республика илмий-назарий анжуман материаллари. Бухоро-2017.
2. Вамбери Х. Средней Азии (дополнение кь «петушествию по Средней Азии») // Туркестанский сборник. - Том XIII (13).
3. Жумаев Қ. Ситораи Мохи-хосса. Бухоро: "Бухоро" нашриёти. 2010.
4. Логофет Д.Н. Хлебная торговля и запасы Восточной Бухары // Туркестанский сборник. - Том 417. - С.104-107.
5. Мусофир Среднеазиатское винограводство // Туркестанский сборник. Том 433. - С.10-14.
6. Некоторые ценная растения горной части Самарканда // Туркестанский сборник. – Том 481. - С.121-123.
7. Қодиркул Абдул Наби. Бухоро амирининг Ялта шаҳридаги саройи // Озод Бухоро: 130-сон, 1924 йил 21 август.
8. Хайитов, Жаҳонгир Шадмонович. "ИСТОРИЯ О РАСПРОСТРОЕНИИ ДЕКОРАТИВНЫХ ДЕРЕВЬЕВ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ (В КОНЦЕ XIX-В НАЧАЛЕ XX В.)." *Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития.* 2019.
9. НАЙИТОВ, J. "History of dissemination of the ornamental trees' new types in Turkestan (the end of XIXth-beginning of XXth centuries)." *Scientific journal of the Fergana State University* 1.6 (2019): 61-63.
10. Nayitov A. S., Nayitov J. S. Comments on uzbek school "model" in Gulja (PRC) // *Academicia: an international multidisciplinary research journal.* – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 1566-1571.
11. Nayitov J. O'zbekistonda donli ekin navlarining tarqalishi tarixi // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
12. Хайитов Ш. А., Юлдашев А. Б. Переселенческая политика советского правительства и история переселения узбеков в Таджикистан // *Гуманитарно-педагогические исследования.* – 2019. – Т. 3. – №. 2.
13. Хайитов Ш. А. Историческая судьба туркестанских военнопленных второй мировой войны // *Метаморфозы истории.* – 2015. – №. 6.
14. Khayitov S. A., Teshayev A. T. THE PROCESS OF UNINON OF GERMANY: ACTIVITY OF HELMUT KHOL // *Scientific reports of Bukhara State University.* – 2020. – Т. 4. – №. 2. – С. 271-275.

15. Khayitov S. A. UZBEKS IN RUSSIAN FEDERATION: HISTORICAL ANALYSIS (1991-2015) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 3. – №. 2. – С. 204-207.
16. Хаитов Ш. А., Норов Ш. С., Сувонова Ж. Ш. ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РЕГИОНАЛЬНЫХ ОБЩЕСТВЕННЫХ ДВИЖЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА В РЕАЛИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ МОЛОДЁЖНОЙ ПОЛИТИКИ (НА ПРИМЕРЕ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ) //apni. ru Редакционная коллегия. – 2021. – С. 16.
17. Nayitov S. hududiy chegaralanish //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
18. Nayitov S. A. THE TURKISTANI MEDIA IN THE TURKISH REPUBLIC (1920-1960) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 3. – №. 3. – С. 249-254.
19. Ҳайитов Ш., Маждидов Ж. БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИДА ҚУРУҚЛИК ВА ҲАВО ТРАНСПОРТИ: ЕЧИМ ВА МУАММОЛАР //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 506-510.
20. Nayitov S. A., Rizaev B. N. HOZIRGI BOSQICHDA O ‘ZBEKISTONNING CHEGARAVIY- HUDUDIY MUAMMOLARI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 597-603.
21. Хайитов Ш. А. Общественные организации Узбекистана в развитии международных связей страны (70-80-е гг.) : дис. – Академия наук респ. Узбекистан. Ин-т истории, 1991.
22. Хаитов Ш. А., Норов Ш. С. Исторический процесс разработки и принятие законов, на основании региональных сущностей о молодежи Узбекистана в период 2016-2020гг //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 81-88.
23. Azimova K. K. Ijodiy topshiriqlar o’quv motivlarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 349-354.
24. Shodmonovich H. J. SPREAD OF NEW TYPES OF CORPS IN TURKISTAN CONTINENT AT THE END OF THE 19TH-AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURIE //European science review. – 2018. – Т. 1. – №. 11-12. – С. 24-26.
25. Nayitov J. S. HISTORY OF RASPROSTROENII DEKORATIVNYX DEREVEV V TURKESTANSKOM KRAE (V KONTse XIX-V NACHALE XX V.) //Russia-Uzbekistan. International educational and socio-cultural technologies: vectors of development. – 2019.
26. Nayitov J. ЎЗБЕКИСТОНДА МЕВАЛИ ДАРАХТЛАРНИНГ МАҲАЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ НАВЛАРИ ТАРИХИГА ДОИР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
27. Nayitov J. МАРКАЗИЙ ОСИЁДА МАНЗАРАЛИ ДАРАХТЛАР ЯНГИ НАВЛАРИНИНГ ТАРҚАЛИШИ ТАРИХИ ВА ЭКОЛОГИК МУАММОЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДАГИ ЎРНИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
28. Shodmonovich H. J. O’zbekistonda uzumchilik tarixi va sohadagi ilm-fan yutuqlari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 106-109.
29. Nayitov J. А XX аср биринчи чорагида Туркистонда чорвага озуқабоп янги экин навларининг тарқалиши тарихи: Хорijiy maqola //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
30. Хаитов Ж. Мустақиллик йилларида Фарғона вилоятида янги экин навларининг тарқалиши тарихидан //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 621-626.